



**AVLONIYNING “ADABIYOT YOXUD MILLIY SHE’RLAR”  
TURKUMIDA JADIDCHILIK G’OYALARI TALQINI.  
 (“MILLAT HOLINDAN BIR YAS” SHE’RI MISOLIDA)**

**Gulboyev Husan Shokir og’li**

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti talabasi  
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7913398>

**ARTICLE INFO**

Received: 01<sup>st</sup> May 2023

Accepted: 08<sup>th</sup> May 2023

Online: 09<sup>th</sup> May 2023

**KEY WORDS**

*Adabiyot yoxud milliy she’rlar,  
millatparvarlik, ilmning  
foydalari, jadidchilik g’oyalari,  
millat holindan bir yas.*

**ABSTRACT**

*Ushbu maqolada Abdulla Avloniy qalamiga mansub “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” turkumining ikkinchi juz qismiga kiritilgan she’rlarida jadidchilik g’oyalarining badiiy talqini haqida so’z yuritilgan bo’lib, “Millat holindan bir yas” she’ri misolida Abdulla Avloniyning g’oyalari tahlil ostiga olingan. Shuningdek, maqolada jaholatdan qutilish va bu yo’lda ilm-u ma’rifatning ahamiyati haqida ham qarashlar mavjud.*

Abdulla Avloniy qalamiga mansub asarlarning aksariyat qismlarida vatanni ulug’lash, millatning rivojlanishi yo’lida jonbozlik ko’rsatishga qodir bo’lgan yigit qizlarni tarbiyalash kabi masalalar ilgari suriladi. Badiiy adabiyot orqali xalq orasiga kirib borish, xalqni ma’naviyatga chorlash yo’lida ilmning samarasi katta ekanligi, rivojlanish va taraqqiyotga ilm yo’li bilan erishish mumkin ekanligi aksariyat ijod namunalarida sezilib turadi. Abdulla Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” turkumining ikkinchi juz qismiga kititilgan “Millat holindan bir yas” nomli she’rida millatning kelgusi holidan havotir tuyg’ulari mujassam ekanligini sezish mumkin. Ushbu she’rning ikkilik shaklda yozilishi kitobxonga shoir ilgari surgan g’oyalarning yetib borishida asos bo’lib xizmat qilgan. “Millat holindan bir yas” she’rining ey millati najib kabi undalma bilan boshlanishi kitobxon e’tiborini tortish, sergaklantirish vazifasini bajargan. Abdulla Avloniy xalq boshiga kelgan adolatsizliklar, jaholatliklarning kishilar hayotiga g’am solishi va uning oqibatida g’amlar birla shakli qiyofang haykal yang’lig’ qiyofaga kirdi deya ta’riflanmoqda. Abdulla Avloniyning “Yo’q bizda bir kishi saninholingni bilguvchi, xam bo’ldi kimsasiz sani shavkatli qomating” jumlasini orqali butun boshli she’rning g’oyasi ochib berilishi kuzatiladi. Bunda jamiyatda xalq holini, millat kelajagini o’ylaguvchi, uning holidan xabar olguvchi hech kim qolmagan ekanligini iddao qilar ekan, vatan taqdiriga havotir bilan boqquvchi kishilarning yo’q ekanligini ilmsizlik, jaholat bilan belgilaydi. Shuning uchun ham ilm olishning foydali tomonlari, jamiyat va millat taraqqiyoti ilm-u ma’rifat bilan rivojlanishi yana bir bora eslatib o’tadi. Xam bo’ldi jumlasini orqali esa xalqimizni olis o’tmishiga nazar tashlaydigandek go’yo. Bunda millatimizning dunyo hamjamiyatiga mashhur bo’lgan ne ne allomalar va davlat arboblari yetishib chiqqan ekanligini qadim qadimdan xalqimiz, millatimiz ahlining ilm-u saodatga ega xalq bo’lgan ekanligiga urg’u beradi. Manashunday fikrlar yuzasidan bugungi kundagi ilm olish yo’lidagi sustkashliklar, jaholat yuzasidan xalqimizning shon-shavkatga ega tarixi bo’lishiga



qaramasdan bugun qaddi xam bo'lgan ekanligini ta'kidlaydi. Bu bilan ilmsizlikning falokatlarini yana bir qadri yodga olinadi. Keyingi misralarda avlodlarga qoladigan meros yuzasida afsuslanib, dunyo mamlakatlarining rivojlanishiga yuz tutishi sababining asl muddaosi ilm bilan kechishini millat holining ne kechmog'iga kuyunchak shaxs bo'lib fikrlar bildiradi. Bu borada avlodlarning beilm, behunar bo'lishini jaholatning qurboni deya ta'riflaydi.

“Vatan tuyg'usi - eng insoniy, eng mo'tabar tuyg'ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan - Onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'am-hasratlarini baham ko'rish -farzandning burchi”.[1] Abdulla Avloniy ilgari surgan g'oyalarning tub mohiyati salomatlik, hunar va taraqqiyotning beshigi ilm-u saodat deya baholaydi. Abdulla Avloniy keyingi qatorlarda bizning bor umidimiz o'g'ul-qizlarni o'qitmoqdan ko'ra to'y-u ziyofatlarni o'tkizmoqqa berilgan bo'lib, kishilarning ilm olmoqdan ko'ra to'y-u ziyofatlarga har dam oshiqishlarini adabiy jihatdan tanqid ostiga olib, she'riy misralarga singdira olgan ekanligi bilan xarakterlanadi. Abdulla Avloniy o'dha davr muhiti va kayfiyatini ifodalash uchun har kishining nafi uni yo'ldan og'dirishini ta'kidlar ekan darbadarlikda, yurtlar osha kezarlarki, biroq, ilm-u hunar o'rganmoqqa, vatan taraqqiyotini o'ylamas ekanliklaridan afsus chekadi. Bu kabi holatlar kishilarning nafi uchun dar badar bo'lurlar biroq mahshar-u qiyomatni aslo o'yg'amaslar deya she'riy misralarga o'zini qiynab turgan tiyg'ularni ifodalay olgandir. Dunyo hamjamiyatida bo'lib turgan ishlarni quyidagi misralarda ifodalaydi.

“Taqsim qilurla boshladilar mol-u mulkingni,

Fors-u Eronda qolmadi qilgan imorating.

O'g'lonlaringni barchasi nodon o'lan jujuq,

Oллоhdan o'zga qolmadi yor-u himoyating”. [2]

Ushbu misralarda anglashiladigan ma'no ota bobolarimizning ilm-u fozillikka erishgan ekanliklari hamda ulardan qolgan qadim yodgirliklarning bugungi kunda talon-taroj bo'layotgan holatlarini Eron-u Fors o'lkalarida bo'lib turgan vaziyatlar bilan baholaydi. Abdulla Avloniy aytmoqchiki, zero, “manashunday kunlar bizning xalqimiz boshiga ham kelmasin, shu boisdan ham ilm o'rganmoq lozimdir”. Abdulla Avloniy ushbu misralarda yurt o'g'lonlariga ham mutojaat qilib ularni “nodon, o'lan jujuq” kabi sifatlar bilan ta'riflaydi, xalqimizning ong-u shuuri ravshanlashmasa keyin kech bo'lishiga urg'u beriladi. Haqiqatdan ham, bugun kichik bir muammo sifatida qarab turilgan vaziyat yoki muammo ertaga katta bir dardga, dard esa g'amga aylanmog'i mumkin ekanligini yodda saqlash lozim ekanligi anglashiladi. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning “holis dil bilan millat rivoji uchun qayg'uring” degan fikrlari asosida ish tutish vatan taraqqiyoti uchun ibodat bilan teng bo'lur degan g'oyalari anglashiladi, zero, vatan taraqqiyoti har nedan ham ortiq turadi. Bunda kishilar ilm olib ibrat ko'zlarini ochishlari lozim ekanligi anglashilib, atrofga, jamiyatga boqib, bo'layotgan ishlarga munosabat bildirish ayni vaqti ekanligi she'riy misralarda ifodalanib berilgan. Bunda ibrat ko'zlari kishining murosaga kelishida vosita bo'lib xizmat qilishi tushuncha bo'lib anglashiladi. Abdulla Avloniyning she'r so'ngida “Har yangi ishga qarshi turib aylading aroz, Hijron o'lurga bo'ldi sabab eski odating” jumalari davr va shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni dalillab berishga xizmat qilgan. Abdulla Avloniy va unga hamroh bo'lib millatni savodli qilmish uchun jon kuydurayotgan kishilarga qarshilik bildirayotgan kishilarni



nazarda tutar ekan, amalga oshirilayotgan yangiliklarning bugungi kunga ahamiyati katta ekanligi yuzasidan ertaga hijron chekmasimiz, aksincha, har qachon eski odatlarni ma'qul sanagan kishilarga vatan taraqqiyotiga g'ov bo'luvchi "eski odat" tushunchasi egalariga ishora sifatida sezish mumkin.

Abdulla Avloniy ilmning foydalarininyaxshi anglagan, shuningdek, vatan, millat taraqqiyotini ilm olish bilan baholagan shaxs sifatida baholanadi. "U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u, yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo'lida qo'llanmasa, u o'likdir. A.Avloniy o'z ilmini amalda qo'llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi".[3] Haqiqatdan ham, kishi qalbining oydin bo'lishi ham, vatanning obod bo'lishi ham bevosita ilm bilan bog'liqdir. Zero, ilm o'rgangan kishi yomonlik qilmas, jaholatga qo'l urmasdir.

### References:

1. Yoshlar ishlari agentligi. "Jadidlar. Abdulla Avloniy" risola. Toshkent:. Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar 1-jild, she'rlar, ibratlar. Toshkent:. "Ma'naviyat" - 2009
3. Xudhanov Alisher Oydin o'g'li. "Abdulla Avloniyning she'riyatida millatvarparlik g'oyasi" maqola. "Zamonavoy dunyoda innovatdion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya